XALQ DEPUTATLARI XO'JAOBOD TUMAN KENGASHI

171400. Xo'jaobodshahar, Uzunko'cha, tel: (8 374) 741-10-01 faks: 741-21-13, E-maill: xojaobod@andijan.uz

2023 - yil 29 - dekabr VI-43-105-1-27-K/23 Xo‘jaobod tumani hokimligi

2024-yil uchun Xo‘jaobod tumanining tuman

mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuni, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalariga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023 yil 25 dekabrdagi 01/30-2-10343--sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25 dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Xo‘jaobod tuman mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 65,678 mlrd.so‘m, xarajatlari 145,991 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 80,313 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy byudjeti bilan tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Xo‘jaobod tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun tuman byudjetidan mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun tuman byudjetining zaxira jamg‘armasi hajmlari
1,295 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy harajatlarining kamida (bundan tuman byudjetlari jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman byudjetining ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlar miqdori oshgan hollarda tegishli byudjetlar zaxira jamg‘armalarining belgilangan miqdorlari qayta ko‘rib chiqilmaydi.

9. 2024-yilda soliqlarning quyidagi turlari:

a) tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosida to‘lanadigan soliq, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar;

aylanmadan olinadigan soliq;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra tumanlar va shaharlar aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

b) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

foyda solig‘idan tushumlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan viloyatlar mahalliy byudjetlariga o‘tkazilishi belgilangan tushumlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga quyidagi ulushlarda:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning 50 foizi;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining 50 foizi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 25 foizi o‘tkaziladi.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mirzaolimov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Sattarov), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Musayev), tuman hokimligi mas’ul bo‘limi va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar harajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjetlar prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlari bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Musayev)ga hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Abdupattayev) bilan birgalikda xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish hamda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning yer uchastkalari va mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini ta’minlasin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Musayev), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Abdupattayev) va Xo‘jaobod tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi (M.Obidov) bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallari hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Xo‘jaobod tuman bo‘limi (F.Qutbiddinov) ga tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Musayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud qarzdorliklarni byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

14. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Z.Ergashev) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Andijon viloyat hududiy boshqarmasi (A.Alimjanov)ga bo‘sh turgan ob’ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Andijon viloyat hududiy boshqarmasi (P.Muratov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «E-IJRO Auksion» elektron savdo maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Andijon viloyat hududiy boshqarmasi (A.Alimjanov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Musayev), tuman moliya bo‘limi (B.Sattarov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanishi hamda 2024-yilning 1-sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

17. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi (U.Jo‘rayev) bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza bo‘limi (X.Xamidov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Musayev)ga bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

19. Tuman ichki ishlar bo‘limi (R.Jaloldinov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (Sh.Qurbonov), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi (J.To‘raboyev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

20. Davlat moliyaviy nazorati Andijon viloyat boshqarmasining tumandagi mas’ul xodimi xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va tibbiyot birlashmasi bosh hisobchi va bosh iqtisodchilari bilan birgalikda:

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

21. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish maqsadida monitoring qilish;

mahalliy byudjet harajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirib borsin.

22. Tuman hokimligi:

tuman mahalliy byudjetlari jami xarajatlarining (bundan tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi mablag‘lari mustasno) 10 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m rejalashtirilishi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini

olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan harid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

23. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mirzaolimov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilotlar boshliqlari:

mahalliy byudjetlar daromadlari va harajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Mazkur qaror “Haqiqat” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

25. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

26. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi **U.Shukurov**

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-43-105-1-27-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Xo‘jaobod tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
1	Aylanmadan soliq	7 304 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	17 226 750,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	709 000,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 428 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 167 000,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 041 000,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 977 500,0
8	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	8 174 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 537 000,0
10	Ijara to‘lovlari	82 000,0
11	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar	32 000,0
JAMI		**65 678 250,0**
Viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar		80 313 027,0
Hamma daromadlar		**145 991 277,0**

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-43-105-1-27-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Xo‘jaobod tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
a	**Harajatlar miqdori, Jami**	**145 991 277,0**
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	**145 991 277,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi**	**22 834 818,0**
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	22 834 818,0
2	**Tibbiyot birlashmasi va SEOM**	60 044 168,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	60 044 168,0
3	**Madaniyat bo‘limi**	3 639 762,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	3 639 762,0
4	**Bolalar va o‘smirlar sport maktabi**	5 398 032,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	5 398 032,0
5	**Fermer xo‘jaliklari buxgalteriyasi markazi**	189 256,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	189 256,0
6	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	13 081 343,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	13 081 343,0
7	**Irrigatsiya tizimlari bo‘limi**	1 744 925,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	1 744 925,0
8	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	1 703 438,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	1 703 438,0

9	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	1 426 258,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	1 426 258,0
10	**Kambag‘alikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	1 700 450,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	1 700 450,0
11	**Soliq inspeksiyasi**	4 257 162,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	4 257 162,0
12	**Xalq qabulxonasi**	144 308,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	144 308,0
13	**Yoshlar ishlari agentligi**	3 540 390,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	3 540 390,0
14	**Oila va xotin-qizlar bo‘limi**	2 445 246,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	2 445 246,0
15	**Hokimiyat**	23 841 721,0
	shu jumladan:	
	joriy harajatlar	23 841 721,0
	Ozodlikdan maxrum etish jazoni o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuvga ko‘maklashish harajatlari	55 166,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	14 876 671,0
	Zahira jamg'armasi	1 298 164,0

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-43-105-1-27-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlardan shaharlar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Foyda solig‘i	Aylan madan olinadigan soliq	Jismo niy shaxs lardan olina digan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosida to‘lanadigan soliq, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismo niy shaxslar dan olinadi gan mol-mulk solig‘i	Jismo niy shaxslar dan olinadi gan yer solig‘i	Suv resursla ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchi larga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadi gan soliq	Yuridik shaxslardan olinadi gan er solig‘i	Yig‘imlar (3422203 doromad kodlari bo‘yicha)*	Davlat bojlari (3422103 doromad kodlari bo‘yicha)*	Jarima-lar (3430103 doromad kodlari bo‘yicha)*	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar	Davlat mulki ni xususiylash-tirish dan olingan daromadlar	Yer uchastka-lariga bo‘lgan huquqlarni sotish dan tushgan pul mablag‘lari	Davlat mulkini ijaraga berish dan tushum lar	Boshqa (3450603, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 doromad kodlari bo‘yicha) tushumlar*
	Xo‘jaobod tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50	50	100	100	100	0	50	50	100	100
	*Mazkur ilovada ko‘rsatilganidan tashqari qolgan barcha tushumlar viloyat byudjetiga o‘tkaziladi																			

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-43-105-1-27-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining daromadlari va harajatlari prognozlari

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Daromadlar*	Harajatlar
	JAMI	**65 678 250,0**	**145 991 277,0**
	Xo‘jaobod tumani	65 678 250,0	145 991 277,0

** tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olmagan holda*

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-43-105-1-27-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun Andijon viloyatining viloyat byudjetidan tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Summa	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar**
	JAMI	**80 313 027,0**	**20 316 508,0**
	Xo‘jaobod tumani	80 313 027,0	20 316 508,0

** tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar*